

IKKI TIL O'TISH ZONALARIDAGI LEKSIK IZOGLOSSALARDA FONETIK TAFOVUTLAR (SARIOSIYO VA DENOV TUMANLARI MISOLIDA)**Babayarov Behruz**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi
1-bosqich magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21013031>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Surxondaryo viloyatining Sariosiyo va Denov tumanlari shevalarida uchraydigan leksik izoglossalarning fonetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Hududiy shevalar o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlar, ayniqsa, leksik birliklarning talaffuzida kuzatiladigan fonetik tafovutlar yoritiladi. Shuningdek, ikki til va sheva tutashgan hududlarda til kontaktlari natijasida yuzaga keladigan fonetik o'zgarishlarning leksik izoglossalar shakllanishidagi o'rni ochib beriladi.

Kalit so'zlar: o'tish zonasi, leksik izoglossa, fonetik tafovut, sheva, dialektologiya, til kontaktlari, Sariosiyo shevasi, Denov shevasi.

Kirish.

Bugungi tilshunoslikda hududiy shevalarni areal jihatdan o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bir-biriga tutash hududlarda yashovchi aholi nutqida kuzatiladigan fonetik va leksik farqlar til taraqqiyoti hamda til aloqalari jarayonlarini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Surxondaryo viloyatining Sariosiyo va Denov tumanlari ham o'ziga xos sheva xususiyatlariga ega bo'lib, mazkur hududlar o'rtasida ayrim leksik birliklarning talaffuzi va qo'llanilishida sezilarli tafovutlar uchraydi.

Sariosiyo tumani geografik jihatdan Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh bo'lgani sababli ushbu hudud shevalarida tojik tilining ayrim fonetik va leksik ta'sirlari kuzatiladi. Denov tumani shevalarida esa adabiy o'zbek tiliga yaqin xususiyatlar ko'proq uchraydi. Natijada ushbu ikki hudud o'rtasida leksik izoglossalar va fonetik tafovutlar shakllanadi.

Tilshunoslikda izoglossa muayyan til hodisasining tarqalish chegarasini bildiruvchi shartli chiziq hisoblanadi. Leksik izoglossalar esa ma'lum bir so'z yoki so'z variantining qo'llanish hududini ifodalaydi. Sariosiyo va Denov tumanlari shevalarida ham ayrim leksik birliklarning fonetik shakllarida farqlar kuzatiladi.

Masalan, adabiy o'zbek tilidagi "bo'lyapti" fe'li Denov hududida asosan shu shaklda qo'llansa, Sariosiyo shevasida "bo'lopti", yoki "bo'lyopti" tarzida talaffuz qilinadi. Ushbu misolda -y- tovush birikmasi tushishi va -a- tovushini -o- shakliga o'zgarishi fonetik tafovutni yuzaga keltiradi.

Shuningdek, adabiy tildagi "kelyapman" shakli Denov shevasida deyarli o'zgarmagan holda ishlatilsa, Sariosiyo hududida "kelomman" yoki "ketomman" kabi variantlar uchraydi. Bu yerda tovush tushishi va fonetik qisqarish hodisasi kuzatiladi. Sariosiyo shevasida ayrim so'zlarning talaffuzida cho'ziq unlilar saqlanib qolgan bo'lsa, Denov shevasida bunday holat kamroq uchraydi. Masalan, ayrim nutqiy vaziyatlarda "non" so'zi cho'ziqroq talaffuz qilinishi mumkin. Bu holat qo'shni tojik tilining fonetik ta'siri bilan izohlanadi.

Yana bir misol sifatida adabiy tildagi "qayerga" so'zini ko'rish mumkin. Denov hududida ushbu birlik adabiy tilga yaqin shaklda ishlatilsa, ayrim Sariosiyo qishloqlarida "qerga"–"qaqqa" kabi variantlari uchraydi. Bu esa fonetik va qisman leksik farqlanishni yuzaga keltiradi. Hududiy shevalarda uchraydigan "kartoshka" – "kartishka", "olib kel"–"op ke", "hovli"–"havli", "uyga" – "vuyga", "beraman" – "beromman", "keladi" – "kelopti" kabi shakllar ham fonetik

izoglossalarning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Bunday birliklar ma'lum hududlarga xos bo'lib, shevalarning o'zaro farqlanishiga xizmat qiladi.

Fonetik tafovutlarning shakllanishida tarixiy va ijtimoiy omillar ham muhim ahamiyatga ega. Sariosiyo hududining ko'p millatli tarkibi, qo'shni davlat bilan muntazam madaniy va iqtisodiy aloqalari ayrim fonetik xususiyatlarning saqlanib qolishiga sabab bo'lgan. Denov hududida esa ta'lim, ommaviy axborot vositalari va adabiy til ta'siri kuchliroq bo'lgani uchun sheva elementlarining ayrimlari asta-sekin adabiy shakllarga yaqinlashib bormoqda. Leksik izoglossalar hududiy shevalarning lingvistik xaritasini yaratishda muhim vosita hisoblanadi.

Sariosiyo va Denov tumanlari misolida kuzatiladigan fonetik tafovutlar nafaqat shevalarning o'ziga xosligini, balki hududlar o'rtasidagi til aloqalarining darajasini ham ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda Sariosiyo va Denov tumanlari shevalari o'rtasida kuzatiladigan leksik izoglossalar fonetik jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ayrim leksik birliklarning talaffuzida tovush almashinuvi, tovush tushishi, cho'ziq unlilarning saqlanishi va fonetik qisqarish kabi hodisalar uchraydi. Bu holatlar hududiy shevalarning shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Sariosiyo va Denov tumanlari o'rtasidagi fonetik tafovutlar til kontaktlari hamda tarixiy taraqqiyot jarayonlarining mahsuli hisoblanadi. Ushbu hodisalarni o'rganish o'zbek dialektologiyasi, areal lingvistika va sotsiolingvistika fanlari uchun muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Reshetov V.V. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1978.
2. Shoabdurahmonov Sh. O'zbek xalq shevalari lug'ati. – Toshkent: Fan, 1971.
3. Jo'rayev M. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Tafakkur, 2016.
4. Nurmonov A. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Akademya, 2012.
5. Mahmudov N. O'zbek tilining nazariy asoslari. – Toshkent: Fan, 2015.
6. Mirzayev M. O'zbek tili shevalarining leksikasi. – Toshkent: Fan, 1966.
7. Juraev B. Surxondaryo shevalari. – Toshkent: Fan, 1964.
8. Nazarov Q. O'zbek shevalari arealining shakllanishi. – Toshkent: Fan, 1980.